

Ochilov Og'abek Narzullayevich (Qashqadaryo VXTXQTMO)
Rahmatullayeva Zuhra Rahmatullayevna (G'uzor tumani)
BARKAMOL SHAXS SHAKLLANISHIDA OILADAGI SOG'LOM MUHITNING
AXAMIYATI

Kelajagimizning qanday bo'lishi biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Bunday ulkan vazifani amalga oshiruvchi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi oiladir. Oila jamiyatning bir bo'lagi, u butun insoniyat va har bir xalq taraqqiyotining beshigidir. Vatan mehri va go'zalligini anglash ham oiladan boshlanadi. Inson borki, tug'ilgan kunidan boshlab, o'zining ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini oilada qondiradi. Shunday ekan, oiladagi muhitning qay tarzda bo'lishi bolaning tarbiyasiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Milliy mafkuramizga mos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida shakllanadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati va ona mehri orqali amalga oshiriladi. Demak, oiladagi sog'lom muhit sog'lom avlod tarbiyasining muhim manbai sanaladi.

Oilada bolaning shaxs sifatida shakllanishi uning go'daklik davridan boshlanadi. Bolalar tarbiyasiga, birinchi navbatda, ota va onaning o'zaro munosabatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining o'zaro samimiy munosabatlari, mehribonchiliklari, bir-biriga bo'lgan g'amxo'rlik, o'zaro hurmat bolaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona farzandi oldida o'z aql-zakovati, muomalasi, shirinso'zligi, rostgo'yligi, bilimdonligi, mehnatsevarligi bilan namuna bo'lishi zarur. Oiladagi nosog'lom muhit, ya'ni otasi ichuvchi va onasini haqoratlovchi, ota-onaning o'zaro janjallari, mehrsizlik, beparvolik, oiladagi pala-partishlik bolaga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ota-ona farzandlarning birinchi tarbiyachisi. Chunki, bola ilk tarbiyani oiladan oladi. Farzand oiladan, ota-onaning og'ushidan, qalb haroratidan, iliq nafasidan bahra olib ulg'ayadi. Oiladagi totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ijobiy muhitni qaror toptiradi, ularning kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilada farzand tarbiyalayotgan ota-ona muloqot madaniyatiga ham jiddiy e'tibor berishi zarur. Muloqot jarayonida buyruq ohangining ustunligi, do'q-po'pisa ohangida, keskin muomalada bo'lish, oila a'zolarining bir-birlariga tez-tez bildirib turadigan e'tirozlari, bir-birlarining fikrlaridan norozilikni ifodalash, yo'l bermaslik va tajovuzkorlikni namoyon qilish oilada tajavuzkorlik va o'zaro raqobat munosabatlarini yuzaga keltiradi. Befarqlik, e'tiborsizlik, qo'pollik, bemehrlik, hurmatsizlik kabilar oiladagi samimiy munosabatlarga putur yetkazadi. Agar aksariyat hollarda iltimoslardan, maslahatlardan, o'zaro kelishuvli savol-javoblardan, o'z niyat-istaklarini, xatti-harakatlarini hotirjamlik bilan bayon qilish usulidan foydalanilsa, oiladagi o'zaro yordam, o'zaro tushunish, bir-birlariga yon berish odat bo'lsa, unda bunday oilalarda do'stona munosabatlar o'rnatiladi, oilaviy hayot uchun eng maqbul bo'lgan psixologik muhit yuzaga keladi. Ota-onalar farzanlarining fe'l-atvori, xulqi, qobiliyati, qiziqishi, ruhiy dunyosini chuqur bilgandagina, oilada ruhiy iliq iqlim yaratish mumkin.

Oila a'zolari o'rtasida samimiy munosabatlarni saqlash, mehr-oqibat, o'zaro g'amxo'rlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, sevishtirish, sevilish kabi qobiliyatlarini namoyon etish oila uchun juda muhim. Insonning ruhiy salomatligi, aynan, shu vazifani qanday bajarayotganligiga bog'liq. Oilaning sog'lom ma'naviy-psixologik muhiti deganda, oila a'zolari o'rtasidagi iliqlik, samimiyat, o'zaro bag'rikenglikdan, mehr-oqibat kabi insoniy tuyg'ularning ijobiyligi tushuniladi.

Mutafakkirlardan biri Abu Ali ibn Sino bola axloqining shakllanishida er-xotinning bir-biriga bo'lgan munosabati, bir-birini hurmat qilishlari ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida ta'kidlaydi. Ibn Sinoning fikricha, oilada bolalarni sog'lom, aqlli, axloqan pok, mehnatsevar qilib tarbiyalash ota-onalarning muqaddas burchi sanaladi. Fikrimizni yakunlar ekanmiz, Yurtimizda o'sib, ulg'ayib kelayotgan yoshlarni mustaqil hayotga qadam qo'yishlari, yetuk shaxs sifatida shakllanishlari, jamiyatda o'z o'rnini topishlari uchun, avvalo, oilada osoyishtalik, inoqlik, toza psixologik muhitni barqarorlashtiraylik. Zero, bu farzandlarimizning o'ziga, kelajakka bo'lgan ishonch hissini uyg'otishga asosiy omil bo'lib xizmat qilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Karimov I.A. —Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuchll Ma'naviyat. T., 2008
2. Pedagogik mahorat. O'quv –metodik qo'llanma. TDPU.T., 2005

3. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y.